

TA'LIM VA TARBIYANING SAMARALI USULLARI

*DTPI o'qituvchisi **Rahmonova Nilufar**,*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi **Nurova Sadbarg Hamroqulovna***

Kirish

Ta'lim va tarbiya inson hayotining eng muhim jabhalaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, xalqning ma'naviy yuksalishi hamda kelajak avlodning komil inson sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi esa, eng avvalo, uning usullariga bog'liqdir. Shu bois, zamonaviy pedagogika fani ta'lim va tarbiyaning eng samarali, interfaol hamda innovatsion usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbqiq etishni asosiy vazifa qilib belgilagan.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta'lim tizimida samarali usullarni qo'llash o'qituvchidan ijodkorlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish, shuningdek, o'quvchini o'ylashga, izlanishga unday olishini talab etadi. Ta'limda quyidagi usullar eng samarali hisoblanadi:

1. Interfaol usullar: "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Munozara", "Bahs-munozara", "Klaster", "Insert" kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va darsni jonlantiradi.
2. Innovatsion texnologiyalar: Multimedia vositalari, interaktiv taxta, onlayn platformalar (Zoom, Google Classroom) orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin.
3. Hamkorlikda o'qitish usuli: Guruhli ishlash, juftlikda topshiriqlar bajarish o'quvchilarni ijtimoiylashuvga, jamoada ishlash malakasiga o'rgatadi.

4. Loyiha usuli: O'quvchilar biror muammoni mustaqil o'rganib, loyiha shaklida taqdim etadi. Bu ularning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.

5. Raqobat asosidagi usullar: "Eng yaxshi javob", "Eng faol ishtirokchi", "Test sinovlari" kabi shakllar o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Tarbiya jarayonidagi samarali usullar

Tarbiyada ham zamonaviy, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan usullar qo'llanishi zarur. Jumladan, quyidagi yondashuvlar o'z samarasini bermoqda:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Har bir bola o'ziga xos, uning qiziqishlari va iste'dodiga qarab ishlash samaradorlikni oshiradi.

- Namuna orqali tarbiya: O'qituvchi va ota-onaning shaxsiy ibрати eng kuchli tarbiyaviy omildir.

- Dialog va muloqot: Bolaning fikrini tinglash, unga erkin fikr bildirish imkoniyatini berish, ijobiy muhit yaratadi.

- Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Tarbiyaviy filmlar, animatsiyalar, ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarni ma'naviy barkamollikka yo'naltirish mumkin.

Xulosa

Ta'lim va tarbiya jarayonida samarali usullarni tanlash va ularni tizimli ravishda qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagog har doim yangi yondashuvlarni izlab, ularni amaliyotda qo'llash orqali ta'lim sifatini oshiradi.

Tavsiyalar

1. O'qituvchilar dars jarayonida interfaol va innovatsion metodlardan muntazam foydalanishlari kerak.

2. Tarbiyaviy soatlarda bolalar bilan erkin muloqot, ijobiy psixologik muhit yaratish zarur.

3. Har bir o'quvchi shaxsini chuqur o'rganib, individual yondashuvni yo'lga qo'yish muhim.

4. Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiya olib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Hasanboyeva O., Tursunova M. "Pedagogika asoslari". – Toshkent, 2016.
3. Yo'ldoshev J.G. "Ta'limda interfaol metodlar". – Toshkent, 2019.
4. Kamolovich, M. S. (2022). Practical forms, methods and tools of spiritual and legal education technologies suitable for citizens in the process of socialization of students. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 55-61.